UO‘K 28-284:28-262:331

ISLOM TA’LIMOTIDA MEHNAT VA MEHNATGA MUNOSABAT MUAMMOLARI

D.A. Sobirov

Maqolada islomda mehnat va musulmonlarning mehnatga munosabatlari, “mehnat” tushunchasining islom nuqtayi nazaridan ta’riflari to‘g‘risida so‘z boradi. Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda mehnat, mehnatning mohiyati, qadr-qimmatiga oid masalalarning yoritilishi misollar bilan sharhlangan. Shuningdek, mehnat islom nuqtayi nazaridan faqat moddiy ne’matlar yaratish vositasi sifatidagina emas, balki uning zamirida ma’naviy-ruhiy omil ham yotganligiga e’tibor qaratilganligi tahlil etilgan. Mehnat va mehnat munosabatlarini islom kontekstida o‘rganish orqali mazkur tushunchalarning mohiyatini yoritishga e’tibor qaratgan.

Kalit so‘zlar: *islom, Qur’oni Karim, hadis, amal, sivilizatsiya. mehnat, mehnatga munosabat, mehnatsevarlik, mehnatning ma’naviy-ruhiy jihati*.

В статье рассматриваются проблемы труда, отношения мусульман к труду, также понятие и определения “труд”а с точки зрения ислама. На примерах проведён обзор отражения вопросов относительно проблемы и сущности труда и его значения в Священном Коране и хадисах. Кроме того, проанализирован тот факт, что труд с точки зрения ислама рассматривается не только как средство создания материальных благ, но и как духовно-нравственный фактор. Посредством изучения труда и трудовых отношений в контексте ислама уделяется внимание содержанию данного понятия.

Ключевые слова: *ислам, Коран, хадисы, деяние, цивилизация, труд, отношение к труду, трудолюбие, духовно-нравственый аспект труда.*

Kirish

Ijtimoiy falsafa uchun insondagi ijtimoiylik va insoniylik xususiyatlari muhimdir. Insonning asosiy ijtimoiy mavjudot sifatidagi xususiyatlari uning tarixdagi rolini va shu orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab beradi. Fikrimizcha, global o‘zgarishlar nafaqat milliy-diniy qadriyatlarimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy qarashlarimizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida, bu masalalar mehnat va mehnat munosabatlari, oldi-sotdi, bitim, shartnomalarni bajarishdagi mas’ullik masalalariga ham ta’sirini ko‘rsatyapti.

Yangilanayotgan O‘zbekiston barcha sohalarda bo‘lgani kabi ijtimoiy falsafada ham yangilanish jarayonlarini keltirib chiqaryapti. Shunga ko‘ra, millatning mental xususiyatlarini, zamonaviy sharoitlarni, diniy va milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda mehnat va mehnat munosabatlari masalasiga yangicha yondashuv zarur.

So‘nggi yillarda olib borilayotgan izchil islohotlar jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy sohasida islom dini va uning muqaddas kitobiga ko‘proq murojaat qilishni taqozo etyapti. Bunday zarurat ijtimoiy tarmoqlarda, kundalik hayotimizda ham kuzatilmoqda.

Kuzatishimizcha, axloq falsafasi (etika), milliy istiqlol g‘oyasi kabi falsafa bo‘limlarida islom manbalariga murojaat bot-bot uchrab turibdi. Ijtimoiy falsafada esa bu jihat kamroq sezilmoqda. Vaholanki, asosiy aholisi musulmonlardan tashkil topgan mamlakatda jamiyat falsafasi ham uning e’tiqodidan kelib chiqqan holda rivojlanishi va modernizatsiya qilinishi kerak. Shuningdek, jamiyat falsafasiga oid sharq musulmon faylasuflari qarashlarini tadrijiy qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, mehnat va mehnat munosabatlari, oldi-sotdi va iqtisodiy munosabatlarni islom ta’limotini hisobga olgan holda o‘rganish dolzarb masalalardandir.

Inson barcha mavjudotlar ichida xatti-harakatlarining, faoliyatlarining ko‘pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mehnat ana shu xatti-harakatlaring aniq maqsadga yo‘naltirilgan qismidir. Mehnat – inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri, odamzodning nimanidir yaratish, muayyan yangilikka va natijaga erishish maqsadida amalga oshiradigan ongli faoliyati. Diniy-teologik ma’noda mehnat Yaratganning odamzodga nisbatan inoyati, uning uchun yaratilgan yashash, hayot kechirish, o‘zi va boshqalar uchun zarur bo‘lgan narsalarni ishlab chiqarish imkoniyatidir [1. B. 790]. Mehnat ekzistenstial qadriyat hisoblanadi. Har bir inson mehnat qilishi kerak. Erkinlikka asoslangan mehnatgina huzur-halovat keltirishi mumkin [2. B. 484]. Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o‘z-o‘zini namoyish etishiga, o‘zligini ro‘yobga chiqarishiga, o‘zgalar bilan munosabatlar o‘rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondan halollikni, intizomni, ishtiyoq va intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan subyektiv tarzdagi ijobiy munosabatni taqozo qiladi [3. B. 277].

Tadqiqot usullari

Islom ta’limotidagi mehnat muammosini yoritishda uning asosiy nazariy manbalari – Qur’oni Karim, hadisi shariflar, islom mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan xulosalar o‘rganilayotgan muammoni yoritishda metodologiya bo‘lib xizmat qiladi. Muammoni tadqiq etishda ilmiy bilishning tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyoslash usullaridan, obyektiv yondashuv prinsipidan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Mehnat tushunchasi falsafa, axloqshunoslik, iqtisod, huquqshunoslik va boshqa fanlar doirasida tadqiq qilingan. Antik davr faylasuflaridan tortib hozirgi kun mutafakkirlarigacha bu borada o‘z g‘oyalarini ilgari surdilar va izlanishlar olib bordilar. Aristotel siyosiy falsafasida mehnat ham muhim o‘rin tutadi. Ammo uning qarashlarida mehnat salbiy ma’noda ham ta’riflanadi. Uningcha, tafakkur va siyosiy faoliyatga nisbatan mehnat ijobiy ahamiyatga ega emas. Ammo u jamiyatda mehnatning rolini butunlay inkor etmaydi. Fuqaro siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun moddiy imkoniyatlari yetarli bo‘lishi lozim. Unga faqat mehnat bilan erishiladi. Mehnat ezgu va baxtli hayotning asosiy shartidir. Aristotel fikricha, fuqaro bo‘lish uchun shaxsga bo‘sh vaqt kerak. Bunga mehnat bilan erishish mumkin [4. B. 20].

Yangi davr Yevropa faylasuflari, iqtisodchilari mehnat va mehnat munosabatlariga alohida ahamiyat qaratdilar. Bugungi G‘arbning iqtisodiy ilg‘orligi zamirida mehnat va mehnat munosabatlariga yangicha qarash, munosabat yotibdi. Xususan, Karl Marksni (1818–1883) mehnat va mehnat munosabatlari borasida faylasuf deb hisoblash mumkin. Mehnat munosabatlari K.Marksning butun ilmiy faoliyatidagi asosiy masala bo‘lgan. K.Marksning kapitalizm va inson tabiatiga oid qarashlarida, ideal sinfsiz jamiyat yaratish g‘oyalarida mehnat masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Marksning fikricha, mehnat kapitalistik jamiyatda insonning o‘ziga xos xususiyati sifatida begonalashgan ko‘rinishda ega. Shuning uchun u mehnatni kapitalizmning begonalashuv sharoitidan ozod qiladigan sinfsiz jamiyatni yaratish g‘oyasini ilgari surdi. Mehnat va mehnat munosabatlari haqida Yevropa olimlarining qarashlarini tahlil etishda german sotsiologi, faylasuf va iqtisodchisi Maks Veber (1864–1920) nomini alohida ta’kidlash zarur. U “Protestant etikasi va kapitalizm ruhiyati” (“The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism”) nomli kitobida mehnat va mehnat munosabatlariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Makis Veber Yevropada kapitalizmni rivojlantiruvchi omil sifatida dinni, aniqrog‘i protestantlikni ko‘rsatadi [5. B. 6]. Uning fikrlaridan keyin Yevropada olimlar va tadqiqotchilar iqtisodiy omillarning o‘sishida, mehnat va mehnat munosabatlari rivojlanishida dinning rolini e’tirof eta boshladilar .

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar mehnat va mehnat munosabatlari haqida ko‘plab g‘oyalarni ilgari surdilar. Ayniqsa, bu borada arab sotsiologi, faylasuf va iqtisodchi mutafakkir Ibn Xaldunning fikrlari

diqqatga sazovordir. Uning fikricha, aynan mehnat va mehnat munosabatlari natijasida sivilizatsiyalar vujudga keladi [6. B. 722]. Albatta, Sharq faylasuflari bu boradagi g‘oyalarini Qur’oni Karim va Hadisi shariflarga tayangan holda ilgari surganlar.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning ijtimoiy hayotida mavjud muammolar, davlat miqyosidagi masalalar mamlakat fuqarolarining mehnatga bo‘lgan munosabatlariga bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim. Bu borada yangilanayotgan O‘zbekistonda bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Avvalo, “Mehnat kodeksi” yangitdan qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PF-5052 sonli farmoniga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi” “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” etib qayta tashkil etildi. 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269 sonli farmoni bilan esa “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” “O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” deb qayta tashkil etildi. Albatta bu yangilanishlar mehnat va mehnat munosabatlari masalasiga yangicha yondashuv va izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Jamiyatda mehnatga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishda, yoshlarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda din omili ham boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar qatori jamiyatni harakatga keltiradigan motivlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda mehnat va mehnat munosabatlari masalasini islom nuqtayi nazaridan tadqiq etish amaliy va nazariy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Islomda mehnat, kasb-kor bilan shug‘ullanish ibodatdan kam emas, aksar hollarda ibodat bilan tenglashtirilgan. Qur’oni Karimning oyatlarida “mehnat”-“amal” so‘zining ko‘p ta’kidlanishi buni isbotlaydi. “Amal” so‘zi Qur’oni Karimda eng ko‘p uchraydigan so‘zlar sirasidan bo‘lib, arab tili xususiyatlariga ko‘ra turli shakllarda 350 martadan ortiq zikr qilingan [7. B. 40].

Islomda mehnat tushunchasi bir qancha so‘zlar bilan ifodalangan. Bu so‘zlar mohiyatida harakat, faollik va izlanish kabi ma’nolar mujassam. Bularning umumlashmasi “mehnat” tushunchasi tarkibiga kiradi.

Islomda mehnatning tavsiflanishi keng qamrovlidir. Unga ko‘ra, u qo‘l mehnati va turli xil ko‘rinishdagi ishlab chiqarish ishlari bilan chegaralanib qolmasdan, insonning barcha axloqiy jihatlari, aqliy faoliyatini ham qamrab oladi. Islom ta’limotida mehnat ma’lum bir kasb bilan shug‘ullanishni anglatadi. Islom shariatiga zid bo‘lmagan moddiy va ma’naviy manfaatni ko‘zlab qilingan har qanday ish nazarda tutiladi. Mehnat turi jismoniy (qishloq xo‘jaligi va sanoat) yoki ma’naviy bo‘lsin (tibbiyot, ta’lim va boshqalar), bir xil ahamiyatlidir [7. B. 35].

Islom axloqi kishilarni jamiyat oldida mas’uliyatli bo‘lishga va jamiyat rivoji uchun foydali mehnat qilishga undaydi. Mehnat, islom nazarida, farovon hayot kechirish vositasigina emas, ayni paytda Alloh roziligi va jamiyat manfaati yo‘lida yaxshi amallar majmuasidir. Mehnat orqali qo‘lga kiritilgan moddiy va ma’naviy boyliklar, yutuqlarni jamiyat uchun sarflash ham mehnat orqali ro‘yobga chiqadi. Mehnat qilish sabablari esa islom axloqiy tamoyillariga muvofiq bo‘lishi lozim. Ya’ni, taqiqlangan ish (harom amal) bilan shug‘ullanish, hatto jismga va ruhiyatga salbiy ta’sir qiladigan darajada qattiq urinish mehnat va mehnatsevarlik hisoblanmaydi [8. B. 187].

Islom ta’limoti nuqtayi nazaridan mehnatning pirovard maqsadi Allohning marhamatiga erishishdir. Alloh subhanahu va taoloning marhamati inson mehnati muvaffaqiyatining cho‘qqisi hisoblanadi. Mehnat masalasida musulmonlik xususiyati ham aslida mana shu nuqtada. Islomda mehnat qiladigan inson hayotning kundalik ehtiyojlarini qondirishdan ko‘ra, uning natijasini umrining oxiriga qo‘yadi. Bu esa musulmonning mehnat sohasidagi asosiy maqsadidir.

Islomda mehnatning qadri beqiyos. Islom ta’limotida tushuntirilishicha, islom dini ilohiy risolat va shariatning so‘nggisidir. Shunday ekan, u o‘zida taraqqiyot va moslashuvchanlik tamoyillarini ham mujassamlashtirgan. Bu dinning mo‘jizalaridan biri, har zamon va makonga moslashuvchanligidir. Shundan kelib chiqib, musulmon kishi o‘z bilimlari va qobiliyatlarini rivojlantirishi, shuning barobarida islom qadriyatlari va maqsadlariga muvofiq yashashi va rivojlanishi darkor. Buning uchun esa u mehnatni asosiy vosita deb bilishi kerak. Chunki Qur’oni Karim insoniyatning azizligi mehnatda ekanligini aniq ko‘rsatib qo‘ygan.

Payg‘ambarlarning hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak ham, ularning har biri o‘z ro‘z-

g‘orining manbai bo‘lgan kasb va hunarlarni puxta egallaganligini ko‘ramiz. Hadislarda kishining qo‘l mehnati bilan topib yegan taomi eng yaxshi taom ekanligi ta’kidlanadi. Payg‘ambarlarning asosiy vazifasi ilohiy amrlarni yetkazish bo‘lsa-da, o‘z kasb-koriga ega bo‘lib, kasbi orqali tirikchilik qilishgan. Odam alayhissalom dehqonchilik bilan, Idris, Nuh va Zakariyo alayhissalomlar duradgorlik bilan shug‘ullanganlar. Ibrohim alayhissalom bazzozlik (bo‘z sotuvchi), Muso alayhissalom cho‘ponlik, Dovud alayhissalom temirchilik qilgan, Sulaymon alayhissalom xurmo shoxlaridan zambil yasab sotgan [9. B. 30–31]. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom esa qo‘ychivonlik va savdogarlik bilan shug‘ullangan [10. B. 24].

Payg‘ambar Muhammad sallallohu alayhi vasallamning sahobalari (izdoshlari va safdoshlari) ham o‘z tirikchiliklari uchun ma’lum kasb bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Xususan, Abu Bakr savdogarlik, Usmon ibn Talha tikuvchilik, Habbob ibn Art temirchi, Abdulloh ibn Mas’ud cho‘ponlik, Zubayr ibn Avvom tikuvchi va tijoratchi, Salmon Forsiy sartaroshlik qilgan [7. B. 41].

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, ismlari zikr qilingan sahobalar (boshqa sahobalar ham) islom shariati ilmlarining shakllanishida va rivojlanishida katta hissa qo‘shgan. Abu Bakr islom xalifaligining tamal toshini qo‘ygan, ya’ni davlatchiligi asoslarini ishlab chiqqan. Abdulloh ibn Mas’ud fiqh ilmining asoschilaridan biri va ayni paytda noib vazifasini ham bajargan. Salmoni Forsiy qarashlari keyinchalik tasavvuf ilmida munosib o‘rin egallagan. Aytmoqchimizki, islom ta’limotining fundamental asoslarini ro‘yobga chiqarishda xizmat qilgan shaxslar har tomonlama komil va yetuk bo‘lganlar. Hozirgi yosh avlod komillik sifatlarini egallashni istasa, uning zamirida tinimsiz mehnat va izlanish yotganligini anglamog‘i, mehnatsevarlik tamoyilini hayotining asosiy qismiga aylantirmog‘i darkor.

Islom ta’limotida mehnat imonning o‘zagida joylashgan va hayotning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mehnat va mehnatga munosabat borasida Qur’oni Karim oyatlari va Hadisi shariflar masalani ochib berishdagi birlamchi manbalardir.

Qur’oni Karim oyatlari va Payg‘ambar Muhammad alayhissalomning sunnatlari mehnatga undaydigan, uning muqaddas bir tushuncha ekanligi, mehnat (amal) vositasida komil imonga ega bo‘lish mumkinligi haqidagi g‘oyalar bilan to‘la: “Amal qilinglar! Bas, albatta, Alloh, Uning Rasuli va mo‘minlar amalingizni ko‘radilar. Va, albatta, g‘aybni ham, oshkorni ham biluvchi Zotga qaytarilasizlar. Bas, U sizlarga qilgan amallaringizning xabarini beradi”, deb ayt”. (“Tavba” surasi 105 oyat) [11. Б. 203].

Boshqa bir oyatda: “U sizlarga Yerni bo‘ysundirib qo‘ygan Zotdir. Bas, turli joylarida yuring va Uning rizqidan yeng. Va tirilish ham Uning saridir” (“Mulk” surasi, 15-oyat) [5. B. 217]. Islom olimlari qadimdan ushbu oyati karimaning tafsirini islomda mehnatga chorlash, rizqni terib yeyish, Yer yuzining turli joylarida harakat qilish zarurligiga dalil qilib keltiradilar [5. B. 217]. Islom shariati farz namozlari tamom bo‘lganidan keyin harakat va mehnat qilishga buyurgan: “Bas, namoz tugaganidan so‘ng Yer yuzi bo‘ylab tarqaling va Allohning fazlidan talab qiling hamda Allohni ko‘p zikr qiling. Shoyadki, zafar topsangiz” (“Jumu’a” surasi, 10-oyat) [11. B. 554]. Nabiy sallallohu alayhi vasallam: “Bomdod namozini o‘qiganingizdan so‘ng uxlamasdan rizqingizni topishga harakat qiling”, dedilar. *(Munoviy rivoyati)* [12. B. 97]. Boshqa bir hadislarida: “Hech kim o‘z mehnati orqali topgan rizqidan ko‘ra yaxshiroq taom yemagan. Allohning Payg‘ambari Dovud alayhissalom ham mehnatlari orqali kelgan rizqdan taomlanar edi”, dedilar (*Imom Buxoriy rivoyati*) [12. B. 97]

Islomda mehnatga niyat ila ibodat xususiyati beriladi. Hadisi sharifda: *“*Agar biror bir kishi yosh bolalarining ehtiyoji uchun (mehnat qilishga) chiqsa, Allohning yo‘lidadir. Agar keksayib qolgan ota-onasi ehtiyoji uchun chiqsa, Alloh yo‘lidadir. O‘z ehtiyoji uchun chiqsa, u ham Alloh yo‘lidadir”, deyilgan [13. B. 56].

Shuningdek, islom dinining ilk davrlaridan boshlab musulmonlar mehnatga nisbatan o‘ziga xos qarashlarni taklif qilganlar va mehnat axloqining konseptual prinsiplarini shakllantirganlar. O‘z navbatida, islomning mehnatga bo‘lgan qonuniyatlari musulmonlarning e’tiqodini mustahkamlagan. Mehnatga va mehnat munosabatlariga qaratilgan ijobiy qarash o‘sha paytda yangi hodisa sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, bugungi zamonaviy tafakkur bilan uyg‘undir. Masalan, O‘rta asr arab sotsiologi Ibn Xaldun-

ning fikricha, jamiyatda tadbirkorlikni rivojlantirish to‘rtta maqsadga xizmat qiladi: odamlar o‘rtasida hamkorlik va o ‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, odamlarning ehtiyojlarini qondirish, moddiy ne’matlarga ega bo‘lish va jamiyat a’zolari ta‘sirining o‘sishi. Shuningdek, tadbirkorlikni e’tiborsiz qoldirish shaharlarni o‘sishdan to‘xtatadi [5. B. 8.].

Ibn Xaldundan ham ilgariroq, X asrda vujudga kelgan “Ixvon us-Safo” (“Poklik birodarlari”) falsafiy yo‘nalishi vakillari mehnatning o‘rni va mazmunini tavsiflashda boshqaruv va tashkiliy xulq-atvorning zamonaviy tasniflariga mos keladigan atamalardan foydalangan. Ular savdo va ishlab chiqarishda ishtirok etish jismoniy, psixologik, ijtimoiy va ma’naviy maqsadlarga xizmat qilishini ta’kidlaganlar. Tadbirkorlik ishlarini yuritishning quyidagi ijobiy natijalarini keltiradilar: qashshoqlikni kamaytirish; odamlarni o‘z kasblarida qat’iyatlilik va ijodkorlikka undash; inson qalbini isbotlangan bilim, yaxshi xulq, foydali g‘oyalar va mas’uliyatli harakatlar bilan to‘ldirish; najotga erishish. “Ixvon us-Safo” mehnatdan olinadigan foyda soha va kasb bo‘yicha farqlanishini ta’kidlabgina qolmay, har qanday mehnat sharafli vazifa ekanligi, ishning mukammalligi Xudo tomonidan eng muborak ish deb hisoblanishiga doir kuchli mantiqiy asosni taklif qildi [5. B. 7].

Islomda jamiyat uchun foydali bo‘lgan barcha mehnat turlari va kasblar e’tiborga olingan. Dehqonchilik sohasiga undab hadislarda: “Bir musulmon ekin eksa yoki bir daraxt o‘tqazsa, undan qush, odam, hayvon yesa, unga sadaqa bo‘ladi”, deyilgan [8. B. 188]. Savdo-sotiqni rivojlantirish targ‘ibotiga oid “Halol, rostgo‘y savdogar payg‘ambarlar, siddiqlar (o‘ta ishonchli kishilar), shahidlar (Alloh yo‘lida o‘z oilasi va vatanini himoya qilganlar) qatorida turadi*”* kabi hadisini eslash mumkin [8. B. 188]. Chorvachilik borasida barcha payg‘ambarlar qo‘ychuvonlik qilishganligi, Muhammad sallallohu alayhi vasallam ham makkaliklarning qo‘ylarini ma’lum haq evaziga boqqanliklari ma’lum. Ishlab chiqarish, sanoat sohasida esa, Dovud alayhissalom temirchilik qilganliklari ibrat qilib ko‘rsatiladi [8. B. 188].

Islom ta’limotiga ko‘ra, musulmon jamiyati o‘z-o‘zini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlashi, o‘zlarining milliy iti-sodiyoti: oziq-ovqat va sanoat mollari ishlab chiqarishi, hatto mudofaa sanoatini ham ta’minlashi zarurdir. “Va temirni tushirdik – unda katta kuch-quvvat va odamlar uchun manfaatlar bor” (“Hadid” surasi, 25-oyat) [8. B. 188]. Islom olimlarining ta’kidlashicha, ushbu oyatdagi بَأْسٌ شَدِيدٌ (*ba’sun shadiyd*) “katta kuch-quvvat” iborasida harbiy sanoat, مَنَافِعُ لِلنَّاس (*manafi’u linnas*) “odamlar uchun manfaatlar bor” iborasida fuqarolik sanoati nazarda tutilgan [8. B. 188]. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz qancha ko‘p mustaqil, iqtisodimiz mustahkam bo‘lsa, biz bilan hisoblashishlariga majbur qilamiz. Nimamiz bilan? Faqat mehnatimiz bilan” [14].

Islomda mehnatning o‘ziga xos normalari mavjud. Avvalo, shaxs o‘ziga munosib mehnat bilan shug‘ullanishi lozim. Ish boshqaruvchi munosib o‘rinlarga munosib nomzodlarni tayinlashi kerak. Chunki insonning axloqi va xulq-atvori uning qilgan ishi va kasbiga bevosita ta’sir qiladi. Yaxshi tanlov ishda mahorat va ijodkorlik bilan bevosita va ajralmas aloqaga ega. Muhammad sallallohu alayhi vasallam bu borada musulmonlar uchun katta o‘rnak bo‘ladigan tadbirlarni ko‘rsatib bergan. Misol uchun, Abu Bakr Siddiq va Umar ibn Xattob kabi sahobalar yaxshi reja va nasihatlar bera olishini inobatga olib, ularni ummatga nasihat qiluvchi qildi. Bilol ibn Abu Rabohning ovozlari balandligi va shirali ekanligini hisobga olib muazzinlik vazifasini topshirdi. Sahobalardan Abu Zar G‘iforiyda yumshoq ko‘ngillilikni sezgach, vahiy yozish ishini unga topshirdi. Kichik sahobalardan Zayd ibn Sobitning xotirasi kuchli ekanligini hisobga olib, unga xorijiy tillarni, xususan, ibroniy tilini o‘rganishni buyurdi. Manbalarda kelishicha, Zayd ibn Sobit 40 kun ichida mazkur tilni o‘rganib oldi. Nizomulmulk o‘zining “Siyosatnoma” asarida ahamiyatli vazifalarni munosib kishilarga berish zarurligini ta’kidlaydi: Hamma zamonda ham diyonatli va e’tiqodli asilzoda kishilarga vazifa berganlar. Agar qabul qilmasa, majbur qilib bo‘yniga qo‘yganlar, toki amal arzimas kishining qo‘liga o‘tib ketmasin. Shunda raiyat tinch bo‘lib, mulk yaxshi nom qozonib, podshoh esa farog‘atda yashagan [15. B. 188].

Ikkinchi talab esa tajribadir. Davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va sivilizatsiya yaratishi tajribali kishilarning ma’naviy-axloqiy majburiyatlarini hisobga olgan holda bajaradigan mehnat mahsulidir.

Uchinchi talab – o‘z mehnatini chin ko‘ngildan, ixlos bilan bajarish va mohirlik. Har qanday jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi mustahkamligi uning a’zolari tomonidan bajariladigan ishlar qanchalik ixlos va mohirlik bilan amalga oshirilishiga bog‘liq. Islom ta’limoti har bir shaxsni o‘z ishini puxta egallashga, uni ma’naviy jihatdan mustahkamlaydigan tarzda ixlosli bo‘lishga undaydi. Mehnatga muqaddaslik xususiyatini singdiradi. Chunki mahorat Alloh taoloning sifatlaridandir: “Tog‘larni ko‘rib, qimirlamay turibdi, deb hisoblaysan. Holbuki, ular bulutning o‘tishidek o‘turlar. Bu har bir narsani puxta qiladigan Allohning san’atidir. Albatta, U nima qilayotganingizdan o‘ta xabardordir” (“Naml” surasi, 88-oyat) [11. B. 384]. Ushbu oyatda mahorat Alloh taoloning sifatlaridan ekani ta’kidlanadi. O‘z ishida mohirlik jamiyatda ham kishilar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan zaruriy talablardandir. Boshqacha qilib aytganda, ishchi o‘z ishini ustasi bo‘lishi kerak. Islom tushunchasidagi ustalik (mohirlik) sof xulq-atvorgina emas, balki xalqlar taraqqiyot darajasini ko‘rsatadigan madaniy hodisadir. U mavjud bo‘lsa, u bilan birga sivilizatsiya ham mavjud bo‘ladi, yo‘q bo‘lsa, sivilizatsiya ham yo‘qoladi [7. B. 40]. Abu Nasr Farobiy baxtlilik darajasini kishining egallagan kasbini mohirlik bilan bajarishiga qarab baholagan. Kim o‘z ishining ustasi bo‘lsa, u boshqalardan ko‘ra baxtliroq hisoblanadi [16. B. 48].

To‘rtinchi talab mehnatdagi izchillik va mashaqqatlarga sabrli bo‘lishdir. Islom axloqida amallarning yaxshisi davomli bo‘lganidir. Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilingan hadisda aytilishicha, Muhammad sallallohu alayhi vasallam dedilar: “Darhaqiqat, Alloh taolo uchun amallarning suyumlirog‘i oz bo‘lsa-da davomli bo‘lganidir”. Oisha roziyallohu anhodan yana quyidagilar rivoyat qilinadi: “Qachonki Muhammad sallallohu alayhi vasallamning oilasi biror amalni qilsa, keyin uni tark etmas edi” *(Imom Muslim rivoyati)* [17. B. 412]. Islom insonni turli sharoitlarda sabrli bo‘lishga undaydi. Albatta, bunga mehnat va unga bog‘liq bo‘lgan mashaqqatlar ham kiradi. Islom ta’limoti uqtirishicha, mehnat mashaqqatlariga (u har qanday shaklda – jismoniy yoki aqliy bo‘lsin) sabr qilish musulmonning gunohlari kafforatiga (o‘chirilishiga) sabab bo‘ladi.

Hadislardan birida aytilishicha, Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: “Qiyomat bo‘lib qolsa, birortangizning qo‘lingizda xurmo ko‘chati bor bo‘lsa, u qoyim bo‘lguncha ulgursa, ekib qo‘ysin”, dedilar [18. B. 206]. Bu ko‘rsatma orqali mehnat har qanday cheklovlardan yuqori maqomga ko‘tariladi. Bu unga zamon va makon chegarasidan tashqarida davomiylik xususiyatini beradi. Biz amalga oshirmoqchi bo‘lgan ezgu amal natijasini ayni paytda ko‘rishning imkoni yo‘q bo‘lishi mumkin. Ammo vaqti kelib u o‘z mevasini beradi. Ya’ni shaxs jamiyatga qanchalik ko‘p foyda keltirsa, ayni paytda uning natijasini ko‘rmayotgan bo‘lsa ham, bir kuni kelib albatta unga o‘sha qilgan xizmatlarining mukofoti beriladi. Eng kamida, kelajak avlodning baxtli bo‘lishi poydevorini qurishga o‘z hissasini qo‘shgan bo‘ladi. Islom tarixida bunga juda ko‘p misollar bor. Shu o‘rinda eslatib o‘tish lozimki, islom odamlarni faqat mehnatga chaqirish va shunga da’vat qilish bilan cheklanib qolmadi, islomda mehnat va mehnat munosabatlarini tartibga soladigan huquqiy asoslar ham ishlab chiqilgan. Islom huquqshunoslari bu boradagi qoida va usullarni ishlab chiqishda islomning asl manbalariga tayanganlar.

Beshinchi talab – mehnat (kasb)ning axloqiy qoidalariga rioya qilish. Axloq odamlar hayotida muhim o‘rin tutishi hech kimga sir emas. Axloq jamiyat kishilarining moddiy-ma’naviy va ijtimoiy munosabatlarini boshqaradi. Shu bilan birga, ularni bir-biridan himoya qiluvchi xavfsizlik vositasi hamdir. Islom tushunchasiga ko‘ra, axloq olamiga kirmasdan turib, mehnat haqida gapirish to‘g‘ri emas. “Erkakmi, ayolmi, kim mo‘min bo‘lgan holida solih amal qilsa, uni pok, go‘zal hayot kechirtiramiz va albatta, ularni qilib yurgan amallarining eng go‘zali barobarida ajr ila mukofotlarmiz” (“Nahl” surasi, 97-oyat) [11. B. 278]. Beodob inson odob haqida so‘zlashi naqadar beo‘xshov holat bo‘lsa, mehnat axloqi tamoyillariga amal qilmasdan mehnat qilish va mehnat munosabatlariga kirishish ham islom nuqtayi nazaridan qabul qilib bo‘lmaydigan holatdir. Abu Nasr Farobiy badxulq insonlarning yomonliklari hatto ularning kasb-hunarlariga ham ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Mutafakkir fozil kishilar kasbi haqida so‘z yuritganidan so‘ng shunday deydi: “Boshqa shaharning aholisiga kelsak, bu odamlarning fe’li yomon bo‘lgani uchun hunarlari

ham uning ko‘ngli yomonligini tuzata olmaydi. Yomon xattot tabiatan badbaxtligi tufayli yozuvi ham tobora xunuklashib boraveradi, uning hunari, san’ati tobora orqaga ketaveradi” [16. B. 48]. Islom nuqtayi nazaridan Alloh va uning Rasulini rozi qiladigan, shariatga muvofiq mahorat bilan bajarilgan ish, eng avvalo, islom axloqiga amal qilingan holda amalga oshirilgan mehnatdir. Kasbiy halollik – bu har qanday sharoitda halollik tamoyiliga asosan harakatlanishdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, islomda mehnat tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, faqat moddiyat bilan bog‘lanib qolmaydi. Mehnatning ruhiy-ma’naviy jihatlari borki, uni jamiyatga yetkazish muhim vazifalardan biri sanaladi. Mehnat to‘laqonli tushunilsagina jamiyat rivojiga xizmat qiladi hamda sivilizatsiya yaratish imkoniyati vujudga keladi. Mehnat va mehnatga munosabat to‘laqonli anglansa, globallashuv sharoitida islomga munosabat va uning yoshlar hayotida namoyon bo‘lishi faqat zohiriy-tashqi shaklda emas, balki ruhiy-ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Ana shundagina “Uchinchi renessans” va Sharq musulmon sivilizatsiyasiga munosib izdoshlik va davomchilik haqidagi g‘oyalar reallikka aylanadi.

Adabiyotlar:

1. *Назаров Қ.* Жаҳон фалсафаси қомуси. Биринчи китоб А-Н. Тошкент:
2. *Воғлайд Ю.* (Ҳамид Содиқ таржимаси) Ватандошлик дастури. – Тошкент: “Azon kitoblari” нашриёти, 2023. – 703 б.
3. *Abdulla Sher.* Axloqshunoslik. – Toshkent: “O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 328 b.
4. *Doğan Bariş Kilinç.* Labor, lesiure and freedom in the philosophies of Aristotle, Karl Marx and Herbert Marcuse. Publisher: Middle East Technical University. – Ankara, 2006. – 106 p.
5. *Abbas Ali*. Islamic work ethic: a critical review // Cross Cultural Management: An International Journal, 2008. – Vol. 15. – No 1. Pp. 5–19.
6. *Сулаймонов Ж.Б* Абдураҳмон ибн Халдуннинг ижтимоий-фалсафий концепциясида “Асабийя” категорияси таҳлили //Academic Research in Educational Sciences, 2022. Vol.3. Issue 6. – Pp. 719 –726.
7. *Ummu Kulsum bin Yahya.* Nazariyatul amal fil islam va davruha fi tanmiyatil mujtama // El-Nasiriya. El-Naciryia for the social and historical studies is an internationally indexed scientific journal. Jazoir. Maskara universiteti, 2013. 4-jild. – – № 1. – B. 33-58.
8. *Yusuf Qarzoviy.* Malamih al-mujtama’ al-muslim allazi nunshiduhu. – Qohira: Maktabat al-vahba, 2012. – 392 b.
9. *Бегматов И.* Мўминнинг касби. – Тошкент: “HILOL NASHR”, 2021. – 447 b.
10. *Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий*. Саҳиҳи Бухорий. 2-китоб. – Тошкент: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқор маркази”, 2020. – 944 b.
11. *Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф*. Тафсири Ҳилол. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 604 б.
12. *Муаллифлар жамоаси.* Олтин Силсила 3-жуз. Саҳиҳи Бухорий. – Toshkent: “HILOL NASHR”, 2019. – 670 б.
13. *Hofiz Abulqosim Sulaymon Ibn Ahmad Tobaroniy.* Mo‘jam al-avsat. – Qohira: Dor al-haramayn, 1995. – 380 b.
14. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo faollari bilan suhbatdagi nutqidan. [Internet manba]. URL: https://www.gazeta.uz (Murojaat etilgan sana: 25.10.2023.)
15. *Nizomulmulk*. Siyosatnoma. / Mas’ul muharrir Sharif Xolmurod. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 310 b.
16. *Abu Nasr Farobiy*. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 160 b.
17. *Valiyuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Xatib Tabriziy*. Mishkatul masobih 1-juz. – Faysalobod: “Maktabatul islamiyya”, 2013. – 721 b.
18. *Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф.* Одоблар хазинаси. 2-жуз. – Тошкент: Шарқ, 2009. – 463 б.

PROBLEMS OF LABOR AND LABOR RELATIONS IN ISLAMIC TEACHINGS

Dilmurod A. Sobirov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 13-21.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: Islam, Koran, hadiths, deeds, work, civilization, attitude to work, hard work, spiritual and moral aspect of work.

The article discusses the problems of labor, the attitude of Muslims to work, as well as the concept and definitions of “labor” from the point of view of Islam. The issues of depicting the problem and the essence of labor and its meaning in the Holy Quran and Hadith are also discussed. The researcher draws attention to the fact that labor in Islam is considered not only as a means of creating material wealth, but is also a spiritual and moral factor. Based on the study of labor and labor relations in the context of Islam, the article reveals the real essence of Islamic teaching on labor.

Purpose - For social philosophy, not the person himself, but the features of sociality and humanity in him are more important. The basic qualities of a human social being determine his role in history and thus the directions of development to ensure social stability. The purpose of this article is to study the problem of labor and labor relations in Islam. In Islam, the definition of work, its essence and its role in the development of society are explained.

The concept of work has been studied in philosophy, ethics, economics, law and other disciplines. From ancient philosophers to modern thinkers, they put forward their ideas and conducted research in this regard. Ancient philosophers such as Aristotle (384-322 BC), Plato (427-347 BC), Xenophon (431-354 BC), and Cicero (106-43 BC) expressed their opinions about labor and its relationship.

Eastern thinkers such as Abu Nasr Farabi, Abu Raikhan Beruni, Yusuf Khos Hajib, Ahmed Yassavi, Bahauddin Naqshband, Amir Temur, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur put forward many ideas about labor and labor relations. The views of the Arab sociologist, philosopher and economic thinker Ibn Khaldun are especially noteworthy in this regard. According to him, it is precisely as a result of labor and labor relations that civilizations are created. Of course, Eastern philosophers put forward their ideas in this regard based on the Holy Qur’an and hadiths.

Design/methodology/approach. In Islamic teaching, its main theoretical sources are the Holy Qur’an, hadiths, and the conclusions advanced by Islamic thinkers on the basis of them serve as a methodology for illuminating the problem under study. Historical and logical, analysis and synthesis, comparative methods and objective approach of scientific knowledge were used in the analysis of this article. In the course of this research, the definition of the concept of «work» from the Islamic point of view and its essence were considered.

Summary. In conclusion, the concept of work in Islam is comprehensive and not only related to material things. There are spiritual and spiritual aspects of work, which is considered one of the necessary tasks to convey to the society.

If the concept of work and the attitude toward it are thoroughly understood, the attitude toward Islam in the conditions of globalization and its manifestation in the minds and lives of young people will not only be evident in outward and external forms but also as a spiritual and inspirational force.

References

1. Nazarov, Q. (2022). Jahon falsafasi qomusi [Encyclopedia of World Philosophy]. The first book is A-N. Tashkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

2. Vooglayd, Yu. (2023) Vatandoshlik dasturi [Citizenship program]. Tashkent: Azon kitoblari.

3. Abdulla, Sher. (2010) Axloqshunoslik [Ethics]. Tashkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati.

4. Doğan Bariş Kilinç. (2006) Labor, lesiure and freedom in the philosophies of Aristotle, Karl Marx and Herbert Marcuse. Publisher: Middle East Technical University. Ankara.

5. *Abbas Ali*. (2008) Islamic work ethic: a critical review // Cross Cultural Management: An International Journal. Vol. 15. No 1. Pp. 5-19.

6. Sulaymonov, J.B (2022) Abdurahmon ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy konstepstiyasida “Asabiyya” kategoriyasi tahlili [Analysis of the “Asabiyya” category in the socio-philosophical concept of Abdurrahman ibn Khaldun]. *Academic Research in Educational Sciences*. Vol.3. Issue 6. Pp. 719-726.

7. Ummu Kulsum bin Yahya. (2013) “Nazariyatul amal fil islam va davruha fi tanmiyatil mujtama” [The theory of work in Islam and its role in the development of society]. El-Nasiriya. Algeria. Mascara University. Vol. 4. No 1. Pp. 33-58.

8._Yusuf Qarzoviy. (2012) “Malamih al-mujtama’ al-muslim allazi nunshiduhu” [Features of the Muslim society we seek]. Cairo. Maktabat al-vahba. 5th edition.

9. Begmatov, I. (2021) Mo‘minning kasbi [The profession of a believer]. Tashkent: “HILOL NASHR”.

10. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. (2020) Sahihi Buxoriy. [Sahihi Buxariy]. Book 2. Tashkent. “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi”. 9._Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019) Tafsiri hilol [Tafsir Hilal]. Chapter 6. Tashkent: “HILOL NASHR”.

11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2008) Tafsiri Hilol. [Tafsisi hilal]. Tashkent: Shark.

12. The team of authors. (2019) Oltin Silsila. Sahihi Buxoriy. [Oltin Silsila. Sahihi Buxariy]. Chapter-3. Tashkent. “HILOL NASHR”.

13. Hofiz Abulqosim Sulaymon Ibn Ahmad Tobaroniy.(1995) “Mo‘jam al-avsat” [“Mu’jam al-avsat”]. Cairo. Dor al-haramayn.

14. O‘zbekiston Respublikasining prezideti Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo faollari bilan suhbatdagi nutqidan [From the speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev in an interview with the activists of Kashkadarya]. [*Online*]. URL: https://www.gazeta.uz (Date of access: 25.10.2023)

15. Nizomulmulk. (2015) Siyosatnoma [Siyasatnama]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

16. Farabi, A.N. (2004) Fozil odamlar shahri [The Virtuous City]. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

17. Valiyuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Xatib Tabriziy. (2013) Mishkatul masobih [Mishkatul Masabih]. Vol. 1. Faysalabad: “Maktabatul islamiyya”.

18. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2009) Ododblar xazinasi. [A treasury of manners].Vol. 2. Tashkent: Shark.

Muallif haqida ma’lumot:

SOBIROV Dilmurod Abduxakimovich – Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: smart_boy_and@mail.ru